



The description of poetic image in Hamza's lyrics: analysis and interpretation

Fazilat MAMADALIYEVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 November 2024

Keywords:

traditional image,
lyrical experience,
plot lyrics,
lover,
mistress,
rival,
innovation,
traditional principle.

ABSTRACT

This article analyzes the specific aspects of the poetry, prose, and plays of Hamza Hakimzoda Niyozzi, a poet, prose writer, and playwright who significantly contributed to the renewal of artistic thought in the early 20th century, with a focus on his poetic imagery.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5/S-pp62-68>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Hamza lirikasida poetik obraz tasviri: tahlil va talqin

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

an'anaviy obraz,
lirik kechinma,
syujetli lirika,
oshiq,
ma'shuqa,
raqib,
novatorlik,
traditsion tamoyil.

Ushbu maqolada XX asr boshlari badiiy tafakkur tarzini yangilashga hissa qo'shgan shoir, nosir va dramaturg Hamza Hakimzoda Niyozziy she'riyatiga xos alohida jihatlar va shoirning poetik obrazlari tahlilga tortilgan.

¹ Independent researcher, Namangan State University.
E-mail: mamadaliyevafazilat322@gmail.com

Поэтический образ в лирике Хамзы: анализ и интерпретация

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

традиционный образ,
лирический опыт,
сюжетная лирика,
возлюбленная,
любовница,
соперница,
новаторство,
традиционное начало.

В данной статье анализируются специфические аспекты творчества и поэтические образы поэта, прозаика и драматурга Хамзы Хакимзода Ниязи, который внес значительный вклад в обновление художественного образа мышления в начале XX века.

KIRISH

Odamning tashqi olamdan ta'sirlanib yaratgan san'at turlari orasida so'z san'ati alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir so'z borliqni tasavvur va tafakkur yordamida voqelanishiga xizmat qiladi va uning vositasida jamiyatlarda hamda borliqdada, ruhiyatda va qalbda kechayotgan jarayonlar o'z in'ikosini topadi.

Ulug' olim Abu Nasr Farobiy tomonidan yaratilgan "Fozil odamlar shahri" asarida, faylasuf Aristotelning olamni bilish haqidagi qarashlarini quyidagicha izohlaydi "...osmon va yerdagi tuyg'u bilan his etiladigan narsalar va ko'zga ko'rinidigan holatlarni hamda ruhning o'zidagi tuyg'ularning mavjudligi sabablarining bilishga ruh doimo intilib turadi. Ruh yana, ruhiyatda paydo bo'ladigan boshqa g'oya va esdaliklarning haqiqiy mohiyatini, xoh ular mazkur odam ruhida paydo bo'layotgan bo'lsin, xoh boshqa odam ruhida paydo bo'lib unga(mazkur odamga) ma'lum bo'lgan bo'lsin, baribir bilishga intilishi,–haqida fikr yuritar ekan,-yuqoridagi aytilgan narsalardan bir nimani bilib olgan odam quvonch va huzur topishini"[1.23] ta'kidlaydi.

Olam mohiyatini aks ettirishda odam, uning iste'dodi muhim mezon hisoblanadi. Ijod ahlining tabiatga taqlid (so'z, harakat, bo'yoq yordamida) qilishi natijasida esa bir-biridan farq qiluvchi san'atlar paydo bo'ladi va ular insonga turli xil tarzda estetik ta'sir o'tkazadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hayotiy tafsilotlarning shaxs ongidagi qayta tasavvurini izohlashga kirishgan Aristotel san'atni quyidagicha ta'riflaydi: "Ba'zi kishilar mahorat, ba'zilar malaka sababli, yana ba'zilar tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini-o'xshashini yaratadilar"[7.54] faylasufning tushuntirishicha, mahoratli, malakali, tug'ma iste'dod egalarigina olamni qayta tasvirlay oladi. Aristotel borliqni bilishda odam sezgisining ro'li hususida fikr yuritar ekan, san'atlar ichida poeziyaning tabiiy paydo bo'lishi, shaxs boshqa jonli mavjudodlardan o'xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan farqlanishi, hatto dastlabki bilimlarni o'xshatishdan olishi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag'ishlashi hususida yozadi. Faylasufning fikricha his qiladigan va sezgi uyg'otadigan narsalarning hammasi tashqi olamda yashaydi. Shuning bois inson bilish va zavq olish uchun tabiatga taqliq qiladi.

NATIJALAR

Butun jahon adabiyotshunosligida ijodkor badiiy tafakkurining poetik obrazlarda namayon bo'lish usullari, muayyan milliy she'riyatda an'ana va yangilanish jarayonining o'ziga xosligi kabi masalalari dolzarb muommalardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda.

Ijodkorlar borki, ular badiiy ijoddagi ilk qadamlaridayoq adabiyot maydoniga yangicha ruh olib kiradilar. Poetik shaklda va poetik obrazlarda ular tamonidan amalga oshirgan yangilanish individual ijodiy kashfiyotlar darajasidan o'sib, o'zi mansub bo'lgan xalq adabiyotiga yangi yuksalish bosqichini boshlab beradi. Ijod laboratoriyasiga mansub ana shunday qonuniyatlarni, ularning yuzaga kelish tamoyillarini tadqiq qilish yangi ilmiy-nazariy xulosalarga olib kelishi jihatidan dolzarbdir.

Dunyo adabiyotshunosligida, jahon xalqlari she'riyatida badiiy tafakkur tadriji, poetik janrlar takomiliga xos tamoyillar, badiiy ijod va uning millat hamda umuminsoniyat poetik tafakkuri yangilanishiga ta'siri, G'arb-u Sharq badiiy estetik tasavvurining namoyon bo'lish usullari singari asosiy masalalar o'rganilmoqda. Poetik mazmunning yangilanishi milliy va umuminsoniy ruhiyat ifodasida aks etishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Poetik obrazdagi evrilishning badiiy-estetik tafakkur rivojidadagi o'rniga doir qarashlar ilgari surilmoqda. Poetik shakl o'zgarishining omillariga oid yangi nazariy xulosalarga kelinmoqda.

MUHOKAMA

Ma'lumki, o'zbek adabiyotshunosligida XX asr boshlari milliy she'riyatimizning yangilanish tendensiyalari yuzasidan izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Milliy she'riyat takomilining ijtimoiy va adabiy-estetik asoslari o'rganilgan. She'riyatimizning yangilanish tamoyillarini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy nazmiy me'rosini o'rganish, ayni shu muammo nuqtaiy nazaridan alohida o'rganish esa adabiyotshunoslikning ustuvor vazifasidir. Negaki, poetik mazmunni yangilashga qodir ijodkor va ijtimoiy-adabiy muhit munosabatlari muayyan milliy adabiyotning taraqqiyot darajasini belgilovchi asosiy adabiy-estetik omildir. Ushbu ilmiy muommoning adabiyotshunoslikda o'rganilishi jarayonida alohida diqqat qaratish kerak bo'lgan masalalar bor. Bunda, shubhasiz, ijtimoiy adabiy muhitning ko'lami va chegarasi bilan bog'liq masalalar nazarda tutilmoqda. Gap shundaki, ilg'or islohotchilar ijodining ta'sirlanish hududini faqat u yashagan zamon, qadami yetgan maqon, shu bilan birga, tilning tushunarliklik omillari bilan chegaralash maqsadga muvofiq emas. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida jahonda shunday adabiy yuksalish sodir bo'ldiki, uning sabablarini o'zaro adabiy ta'sirlardan izlash maqsadga muvofiqdir.

O'zini millat fidoiysi deb bilgan, milliy adabiyotni yuksaltirish orqali o'z xalqini umumjahon miqyosiga olib chiqishni maqsad qilgan har bir ijodkor badiiy tafakkuri darajasini o'z davrining eng ilg'or tendensiyalariga muvofiqlashtirishi zarur. Bunda u, albatta, o'zi bilan bir davrda ijod qilayotgan jahon adiblarining yutuqlari va tajribalaridan unumli foydalanishi, kerak bo'lsa, ular bilan o'zaro mubohasaga kirishi taqozo etiladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy XXasr boshida o'zbek adabiyotini Abdulla Qodiriy va Abdurauf Firat bilan baqamti turib, ana shunday darajaga yetkaza oldi. Shu ma'noda Hamza ijodini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq qilish, nazarimizda, eng to'g'ri yo'l bo'ladi. Biroq bu o'rinda shuni nazarda tutmoq zarurki, "Adabiy ta'sir yoki komparativistika jarayoni har bir millat adabiyot doirasida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi"[4.87].

Hamza mansub ijtimoiy-adabiy muhitni O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo bilangina chegaralash yaramaydi. U qator mamlakatlarga bordi va u joydagi adabiy jarayonlar bilan bevosita tanishib, o'ziga xos aloqada bo'lgani yaxshi ma'lum. Negaki, Ismoil Gaspirinskiy ilgari surayotgan turkiy xalqlar boshida ko'p yillar davom etib kelayotgan milliy inqirozni bartaraf etish va dunyoning eng ilg'or millatlari qatoriga olib chiqishni ko'zda tutuvchi jadidchilik harakati, milliy uyg'onish g'oyalari Hamza ijodining mafkuraviy asosini tashkil

etar edi. Jadidchilik va jadid adabiyoti milliy ma'rifatni jahon ilm-fani va san'ati bilan uyg'un taraqqiy ettirish g'oyasiga asoslangani ma'lumdir.

Ijodkorning individual ijod mahsuli umumiy ijodiy jarayonning tarkibiy qismi bo'lib, ko'p jihatlari bilan uzviylik kasb etadi. Ya'ni hech bir badiiy asar an'anaviy tafakkur zaminidan uzilgan holda vujudga kelmaydi. Ijodkordagi yangilik individual dunyoqarash, yondashuv, mahorat, tayyorgarlik (psixologik omillar)ga ega bo'lish, usullar, uslub tanlash, talqin yaratish va badiiy shakllar ijod qilish –ijodiy o'zlikning namoyon bo'lishidir. Shunday xususiyatlarga ega bo'lgan san'atkor nimani ijro qilmasin, uni o'z ovozi toniga moslaydi-individuallashtira oladi. Bu xossalar individual ijodiy tafakkurni aks ettiradi va poetik ijodda mazmun yangilanishiga asos yaratadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning individual ijodiy tafakkuri kuchini baholash uchun ham, eng avvalo, uning jahon adabiyotida an'anaviylik kasb etgan mavzu yoki obrazlarga yondashuvidagi talqin hamda yechimlarining saviyasi darajasini aniqlash lozim. Buning uchun Hamza ijodi to'la imkon beradi. Ana shu imkon bo'lishining o'zi ham juda muhimdir. Shoirning ana shu imkonini uning birgina obrazga murojaati orqali kuzatamiz.

O'zbek adabiyotshunosligida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy o'zgarishlar natijasida dunyo va inson munosabatlarini chuqurroq idrok etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda jamiyatimiz rivojlanishi uchun olib borayotgan islohotlarni amalga oshirishda o'zbek adabiyoti oldida qo'yilayotgan vazifalarni bajarishga to'liq imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, badiiyatni har tomonlama chuqur o'rganish masalasiga bag'ishlangan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, adabiyotshunoslikda poetik til va uslub, metaforik timsol yaratish poetik uslub muommolari haqida bir nechta ilmiy tadqiqotlar yaratilgani ahamiyatlidir. "Millionlab odamlarning e'tiborida bo'lgan, madaniyat, adabiyot va san'at degan muqaddas dargohga qadam qo'yan har bir ijodkor, hech shubhasiz, avvalo o'z xalqining qalbiga quloq solib, uning dardiga darmon bo'lishga intiladi[1.54]" degan fikrda ijodkorlarning jamiyat, Vatan va millat oldidagi mas'ulligi nazarda tutilgan. Bunday mas'ullik har bir iste'dod sohibida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

San'at turlari ichida so'z san'ati o'zining yuksak badiiyligi bilan boshqa san'at turlaridan farqlanadi. Bunda eshitish, his qilish, ta'sirlanish kabi holatlar ularning bevosita inson ichki olamiga dahldor ekanligini ko'rsatadi. So'z san'atkorining tafakkur kuchi natijasida badiiy asar markazini obrazlar egallaydi. Obraz mazmun-mohiyatiga ko'ra estetik zavq uyg'otishi bilan bir qatorda his-tuyg'uning ana shunday yuqumli bo'lishiga ham xizmat qiladi.

Jahon adabiyotining estetik tafakkur taraqqiyotiga nazar soladigan bo'lsak, Aristoteldan keyin borliq va uni estetik jihatdan tushunish mohiyatan ancha teranlashdi. Estetika tarixida birinchi bo'lib she'riy asarlarni tahlil qilishda Gegel tasvir-OBRAZ muommosini o'rta tashladi hamda uni tushunish va o'rganishning asosiy yo'nalishini belgilab berdi. U obrazning o'ziga xos xususiyatlarini she'riy asarlarda ko'rdi. "Umuman olganda,-deb yozadi Gegel,-biz she'riyatdagi obrazni ramziy obraz deb ham belgilashimiz mumkin, chunki u bizning ko'zimizga mavhumlik bilan bir qatorda, hayot haqiqatini o'ziga xos, takrorlanmas holatlarda ko'rsatadi va bu kishiga estetik zavq bag'ishlaydi"

Obraz tushunchasi keng ma'noda san'at va adabiyotning umumiy xususiyatlarini anglatadi. Adabiy tasvir-boshqa san'at tasvirlaridan farqli o'laroq –so'z vositasida berilgan tasvirdir. Umuman olganda, obraz san'atgagina xos bo'lib, borliqni aks ettirish tushunchasida namoyon bo'ladi. Badiiy ijodning mohiyatini o'zida aks ettiradi.

Olim V Xalizev obrazning estetik ahamiyati haqida quyidagilarni yozadi. “Ijodkor har bir obrazni estetik normalar asosida badiiy jihatdan mukammal yaratibgina qolmay, ayni bir vaqtning o’zida shu obrazga o’zining munosabatini ham bildiradi”[7.14]. Ijodkorning borliqda kechayotgan voqea-hodisalarga, jamiyat kishilariga nisbatan munosabati murakkab jarayon sifatida shodlik-qayg’u, sevgi-nafrat, ehtirom-achinish kabi ziddiyatli his-tuyg’ularida namoyon bo’ladi. So’ng shu tuyg’ulari borliqda mavjud jarayonlarga narsa-predmetlarga o’xshatish, nisbat berish orqali o’quvchida hayajon estetik zavq yoki nafrat kabi hissiyotlarni uyg’otadigan poetik obrazni o’ylab topadi[8.93].

Obraz serqirra hodisa sifatida o’zida borliqning turfa ranglarda tasavvur etishga yordam beradi. Uning zamiridagi ma’no inson hayotining ijod orqali yaratiladigan aniq va umumiy tasvirni ifodalashi bilan o’zida hissiy-estetik munosabatni paydo qiladi. Shu hususida L.Timofeev quyidagilarni yozadi. “Obrazning estetik mohiyati shundaki, unda inson idealining aniq ko’rinishi ifodalanadi”. Darhaqiqat, badiiy ijodda san’atkor o’zi uchun muhim deb bilgan va ko’ngildan kechgan tuyg’ular sabab voqealilikdan ta’sirlanadi. Ana shu ta’sirlanish va ilhomlanish natijasida ijodkor o’z asarlarida yangidan yangi poetik obrazlarni kashf etadi. So’ng unga turfa o’y-hayollari, o’z orzu-maqсадlarini, eng muhimi, niyatini, nima demoqchi ekanligini singdiradi. Bunda ijodkor his etilgan his-hayajonni ma’lum tasvir asosida beradi. Individual yondashuv vositasida paydo bo’lgan obraz shoirning his-tuyg’usini, niyatini, kechinmasini ma’no jihatdan tovlantirib berishi kerak. Ana shundagina tasvir-obraz asarda his qilingan tuyg’uga mos bo’ladi va mazmunda salmoqdorlik kasb etadi. Badiiy asarda obraz o’ziga xos estetik ideal nuqtaiy nazaridan haqiqatning o’ziga xos hissiy jihatdan takrorlanishining bir usuli ekanligi bilan ajralib turadi.

Badiiylik shaxs faoliyatining shunday turiki, u o’zining ijod mahsullarini (ularning estetik bir butunligi) mukamallik darajasining “chegara”sini taxmin qila oladi. Kant iborasi bilan ayrganda, bu faoliyatni “chetga surish mumkin emas”. Boshqacha qilib aytganda, san’at (faoliyatning sohasi), shu qatorda so’z san’ati estetik munosabatlarning yuqori shakli hisoblanadi. M.M.Baxtining yozishicha, “Tabiatni estetik mushohada qilish, afsonalardagi, dunyoqarashlardagi estetik jihatlar chalkash, betakror, sun’iydir. Estetika faqat san’atdagina o’zini bor holicha namoyon eta oladi”.[7.65]

Badiiy asar, poetik obrazlar orqali ijodkor nimani ifodalaydi, borliqni qay yo’sinda tasvirlaydi-bu ikki jihat o’z ahamiyati bilan bir-biridan muhim, bir-biridan mas’uliyatli. Chunki adabiyotda badiiy obraz orqali inson xarakteri, tashqi qiyofasi, ichki dunyosi namoyon bo’ladi. Binobarin, “obrazaning g’oyaviy-ma’naviy qimmatini ham uning badiiy-estetik darajasi bilan, niyatning san’at nuqtaiy nazaridan qay tarzda ijro etilgani bilan belgilanadi”.[1.22]

Umuman olganda, badiiy adabiyot obrazlar orqali hayotdagi ham oddiy ham ibratli faktlarni xoh tabiiy, xoh favqulodda hodisalarni tarqoqlik yoki mavhumlik holatidan ozaro mutanosib, uyg’un holatga keltiradi, ma’lum tartib-me’yorga soladi. Mazkur ishlar o’z navbatida ijodkor tomonidan amalga oshiriladi. Badiiy adabiyot olamni, insonlar taqdirini o’zining poetik obraz tizimiga boysundirar ekan, bularni go’zallik va nafosat qonuniyatlariga ko’ra qayta yaratadi. Ya’ni badiiy obraz ijodkor uchun fikrlash vositasi hayotiy voqelik ta’sirida paydo bo’lgan kechinma tasvirini berishdagi muhim omil hisoblanadi.

Ma'lumki, badiiy ijodni baholashda, o'qishda, o'rganishda va tahlil etishda ikki xil qarash ustuvorlik qiladi. Birinchisi navbatda yaratilgan asarning zamon va davrga hamohangligi, jamiyat manfaatlariga va kitobxonning hayotiy tajribasiga, qiziqishiga ko'ra;

Ikkinchisi navbatda, o'quvchining san'atdagi va hayotdagi go'zallik tuyg'ulari talqinidan kelib chiqib, ruhiy-estetik, hissiy-emotsional, tarafdin yondashiladi.

Jamiyat va tabiatda, qalbda va ruhiyatda, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar ijodkor nigohi bilan qaralganda hamma davrlarda ham kutilmagan, vafqulodda nozik izlanishlar samarasi natijasi bilan adabiyotga kirib keladi. Bu esa shaxs tafakkurining, ichki sezimlarining hayotiy ehtiyojdan estetik zarurat tomon ildamlayotganligini ko'rsatadi. Ya'ni jonli so'zlashuv tilida odatiy qo'llanadigan so'zlar she'riyat tilida qaytadan tiriladi, o'zida estetik joziba uyg'otadi.

She'riyatning tabiati o'zgarmaydi. Ijodkor so'z tanlar ekan uni sayqallab, mazmunan salmoqdor, badiiy jihatdan jarangdor va jozibali bo'lishiga erishishi kerak. So'z har bir ijodkor she'riyatida chuqur ichki mazmunga, hissiy-badiiy obrazga aylanishi bilan muhim va ahamiyatlidir. Shuningdek, ".....hayotiy tuyg'ular zamiriga voqe bo'lgan, samimiy hissiyotlar va chuqur fikr evaziga yaratilgan she'r"[5.21] o'qirmanga estetik zavq va ruhiy ozuqa bag'ishlashi bilan ham alohida vazifa bajara oladi. Badiiy adabiyotda ruhiy olamdagi o'zgarishlar go'zallik qoidalari asosida ifoda etilar ekan, bu o'z-o'zidan, shunchaki ro'y bermaydi. Ijodkor ziddiyatli va murakkab ruhiy to'qnashuvlarni, ijodiy qiynoqlarni qalban his qilganda, voqelikka nisbatan ijtimoiy-estetik munosabat to'la etilgan she'r-ehtiyoj farzandi (Abdulla Oripov) tug'iladi. Zero, Hamza Hakimzoda Niyoziyning qator she'rlari ana shu ehtiyoj tufayli dunyoga kelgan.

Bilamizki, lirik kechinma orqali o'qirmanda yuzaga keladigan ruhiy hayajon to'lqinlari bevosita ijodkor, o'ylab topgan va yaratgan, poetik obrazda o'z ifodasini topadi. Kitobxonda paydo bo'lgan, bir-birini takrorlamaydigan va bir-biriga o'xshamaydigan, ruhiy kayfiyat shoir yaratgan poetik tasvirning haqqoniyligi, yorqinligi, betakrorligi bilan izohlanadi. Biroq bunday obrazlarning yaratilishi shunchaki yuzaga kelmaydi. Qachonki, shoir voqelikdan tuyg'ulari jo'sh urar, ta'sirlanganda o'sha voqelikka o'zining hissiy munosabati shakllanar ekan asarda poetik obraz dunyoga keladi. Ijodkorni o'yga toldirgan muammo uning qalbida sintezlanadi. Demakki, his-tuyg'ularning borliqqa munosabati lirik kechinmani hosil qilgani holda, kerakli, eng ma'qul obrazning paydo bo'lishiga ham xizmat qiladi.

"She'r nima? Bu savolga "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da "Ohang jihatdan ma'lum bir tartibaga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq"[1.45], deb ta'riflanadi.

Adabiyotshunos olim va tanqidchi V.G.Beliniskiy lirik asarlarning hususiyati, boshqa turlardan farqi va ularning yuzaga kelishi jarayoni hususida shunday yozadi: "Har bir tashqi hodisadan avval tilak, orzu, niyat, xullas fikr tug'iladi; har bir tashqi hodisa ichki, yashirin kuchlarning faoliyati natijasidir: Poeziya voqelikning mana shu ikkinchi ichki tomoniga, bu kuchning tub negiziga kirib boradi, tashqi aniqlik, voqea va xatti-harakat ana shu kuchlardan hosil o'sib chiqadi....Bu sub'ektivlik saltanati, bu ichki dunyo, o'z ichida qoluvchi va tashqariga chiqmaydigan tashabbuslar dunyosidir. Bunda poeziya ichki elementda, tuyg'u va ong doirasida qoladi; bunda ruh tashqi reallikdan o'tib yashirinadi, tashqi dunyoni o'zida aks ettirgan ichki hayotning mislsiz jilvalarini poeziyaga hadya qiladi. Bunda shoirning shaxsiyati birinchi o'rinda turadi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymiz. Bu lirik poeziyadir [8.98].

Demak, she'r ijodkorning voqelikdan ta'sirlanishi natijasi bo'lib, uning qalbidan o'tgan, boshqacha jilo topib shakllangan fikr va tuyg'ularidir.

XULOSA

Ko'rinadiki, poetik obraz va lirik kechinma munosabatida mazmunning ochiq yoki ramziy ko'rinishlari uchraydiki, bu bevosita ijodkorning voqelikka munosabati tarzidan kelib chiqib ifoda etiladi. Hamza bu she'rida bolalarni yoshligidanoq rostgo'ylik ruhida tarbiyalash lozimligini uqtiradi, ularni yolg'onchilik va aldamchilikdan uzoqroq yurishga chaqiradi. Uning ta'sir doirasini kengaytirish uchun shoir she'rni bola tilidan izohlaydi.

So'zning hissiy-mavhumiy ko'lamini kengayishi bilan holat oddiylikdan murakkablik tomon o'sib boradi. Joiz bo'lsa, hatto o'quvchiga she'rni teran anglashni qiyinlashtiradi. Bu esa she'r ziynatining o'ziga hosligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.K. Nurmuhammedov, Adabiyot nazariyasi, -Toshkent: 1979-yil, B-20.
2. O'zbek adabiyoti masalalari, -Toshkent: 1962-yil, B-220.
3. Dilrabo Mingboyeva, Timsollar tilsimi. Toshkent: Adabiyot 2022-yil, B-116.
4. Ulug'bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent: 2002-yil, B-8.
5. Laziz Qayumov, Asr va Nasr, -Toshkent: 1975-yil, B-88.
6. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Uzilgan chechaklar, -Toshkent: 1986-yil, B-22
7. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Devon, -Toshkent: 1988-yil, B-55.
8. S. Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. -Toshkent: B-128.
9. Abdulla Sher. Estetika. -Toshkent: O'zbekiston.2014. B-224.